

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***60811200 – Suv xo'jaligi va melioratsiya bakalavriat ta'lif  
yo'nališining***

***MALAKA TALABLARI***

**Toshkent - 2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

"Toshkent davlat agrar universiteti"

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil  
«25» iyun dagi 218 - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lifning davlat ta'lif standard. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lifning davlat ta'lif standard. Oliy ta'lif yo'naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	4
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>7</b>
<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>10</b>
<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

*60811200 – Suv xo'jaligi va melioratsiya* ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lif shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda **bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.**

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari *60811200 – Suv xo'jaligi va melioratsiya* ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lif yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o'qituvchilari;

ta'lif yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tasnifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

*60811200 – Suv xo'jaligi va melioratsiya* ta'lif yo'nalishi – fan sohasidagi bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'lib, professional ta'lifi muassasalarida ta'lif yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'lifning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpoq Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya, Sirdaryo-So'x ITHB huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya, Chirchiq-Ohangaron ITHB huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya Sirdaryo-Zarafshon ITHB huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya, Zarafshon ITHB huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya, Quyi-Sirdaryo ITHB huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya, Quyi-Zarafshon ITHB huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya, suv omborlari, nasos stansiyalar va boshqa suv xo'jaligi hamda melioratsiya inshootlari, davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*ilmiy-tadqiqot;*

*loyiha texnologik;  
ishlab chiqarish:  
tashkiliy-boshqaruv;  
axborot-tahliliy faoliyati.*

#### **1.2.4. Kasbiy vazifalar.**

60811200 – *Suv xo'jaligi va melioratsiya* ta'lif yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi qo'yidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bulishi lozim:

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqikot ishlari olib borishi; ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish; ilmiy-tadqikot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lif yo'naliishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtik etish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

##### **Loyihaviy-texnologik faoliyatida:**

suv resurslaridan samarali foydalanish va mavjud suvdan foydalanish texnologiyalarini taqomillashtirish hamda ularni tizimli yondashuv asosida taqomillashtirish tadbirlarida ishtiroq etish;

zamonaviy resurstejamkor sug'orish va meliorativ tizimlarni hamda ilg'or texnologiyalarini loyihalash va amalga oshirish;

o'z faoliyatida axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini ixtisosligiga mos ravishda qo'llash;

irrigatsiya va melioratsiya tizimlari va mexanizmlaridan foydalanish samaradorligini oshirish takliflarini ishlab chiqish, texnika va texnologiyalar uchun uskunalar, moslamalar va zaruriy jihozlarni tanlash, bajariladigan ishlarni sifatini oshirish usullarini taqomillashtirish;

gidrotexnika inshootlari, nasos stansiyalari va jihozlari, ularning qismlari va qurilmalarining parametrlari va imkoniyatlarini aniqlash;

irrigatsiya va melioratsiya sohasida loyihaviy va dasturiy ho'jjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish.

##### **Ishlab chiqarish faoliyatida:**

irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi texnologik jarayonlarni tashqil etish;

ishlab chiqarishni tashqil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

irrigatsiya va melioratsiya sohasida ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish rivojlantirish;

    suv xo'jaligi va melioratsiya sohasi ishlab chiqarishida texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

    ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

    ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayonlar va resurslarini rejalashtirish;

    zamonaviy axborot texnologiyalalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayongi monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

    atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

    sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

    ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

    fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

    bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

    ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

### **Axborot-tahliliy faoliyatda:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

### **2. Kompetensiyalarga qo'yiladigan talabla.**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

    mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakillantirish;

    xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

    axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, kayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

    yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

    sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish;

    ta'lif yo'naliishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallah uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi; ta'lif yo'naliishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

    pedagogik faoliyatda ta'lifning innovatsion usullaridan foydalanish, yangi pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq etgan holda tashkil etishi;

    o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot, pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratdan foydalana olishi;

ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun ish meyoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Talim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talabla.**

Malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

### **4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T./r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyluklarning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	XT1112	Xorijiy til	360	12	1,2
1.02	MAT1112	Oliy matematika	360	12	1,2
1.03	FIZ1105	Fizika	150	5	1
1.04	OYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.05	TIL1104	O'zbek(rus) tili	120	4	1
1.06	KIM1105	Kimyo	150	5	1
1.07	MKG1205	Muhandislik va kompyuter grafikasi	150	5	2
1.08	IG1205	Injenerlik geodeziyasi	150	5	2
1.09	JTS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.10	QM1204	Qurilish materiallari	120	4	2
1.11	FAL1304	Falsafa	120	4	3

1.12	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.13	AT1406	Axborot texnologiyalari	180	6	4
<b>Suv xo'jaligi va melioratsiya faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.14	SXK1306	Suv xo'jaligi va melioratsiyaga kirish	180	6	3
1.15	GG1306	Geologiya va gidrogeologiya	180	6	3
1.16	MGBI1305	Meliorativ gidrogeologiya. Burg'ilash ishi.	150	5	3
1.17	TD1406	Tuproqshunoslik va dehqonchilik	180	6	4
1.18	GID1410	Gidravlika	300	10	4,5
1.19	EG1405	Ekspluatatsion gidrometriya	150	5	4
1.20	QSF1506	Qishloq xo'jaligida suvdan samarali foydalanish texnologiyalari	180	6	5
1.21	IM1515	Irrigatsiya va melioratsiya	450	15	5,7,8
1.22	YRM1705	Yerlar rekultivatsiyasi va muhofazasi	150	5	7
1.23	NNS1705	Nasoslar va nasos stantsiyalari	150	5	7
1.24	GTI1705	Gidrotexnika inshootlari	150	5	7
1.25	GTF1710	Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish	300	10	7,8
1.26	SYT1806	Sho'r yuvish texnologiyalari	180	6	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1380</b>	<b>46</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>1380</b>	<b>46</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
Kvalifikatsiya	Muhandis-gidrotehnik (Suv xo'jaligi va melioratsiya)				
<b>Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.14	M 1308	Mekhanika I,II	240	8	3,4
1.15	MKM1306	Materialshunoslik va konstruksion materiallar	180	6	3
1.16	GGM 1406	Gidravlika va gidravlik mashinalar	180	6	4
1.17	MDI 1310	Mashina detallari va loyihalash asoslari	300	10	3,4
1.18	TTV 1506	Traktorlar va transport vositalari	180	6	5
1.19	QT 1511	Qurilish texnikalari	330	11	5,7
1.20	MT 1711	Melioratsiya texnikasi	330	11	7,8
1.21	MST1710	Melioratsiya va suv xo'jaligi ishlari texnologiyasi	330	11	7,8
1.22	MSE 1711	Melioratsiya va suv xo'jaligi texnikalari ekspluatatsiyasi	330	11	7,8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1680</b>	<b>56</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>1680</b>	<b>56</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
Kvalifikatsiya	Muhandis-mekhanik (Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish bo'yicha)				
<b>Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.13	GG1307	Geologiya va hidrogeologiya	240	8	3,4

1.14	TD1408	Tuproqshunoslik va dehqonchilik	180	6	4
1.15	GID1410	Gidravlika	300	10	4,5
1.16	GMTF1710	Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish	300	10	7,8
1.17	RTST1515	Resurs tejamkor zamonaviy sug'orish texnologiyalari	450	15	5,7,8
1.18	SXRT1510	Suv xo'jaligida raqamli texnologiyalar	300	10	5,7
1.19	SYMM1709	Sug'oriladigan yerlarda meliorativ monitoring	300	10	7,8
1.20	IM1710	Irrigatsiya va melioratsiya	300	10	7,8
1.21	GML1504	Gidromeliorativ tizimlarni loyihalash	120	4	5
2.00		<b>Tanlov fandlari</b>	<b>1590</b>	<b>53</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	<b>1590</b>	<b>53</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
Kvalifikatsiya		Muhandis-gidrotehnik (Suv xo'jaligi va melioratsiya)			
		<b>Jami</b>	<b>6150</b>	<b>210</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>6</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>			<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>1050</b>	<b>30</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK 002:651. 1/7

Guruh T 55

OKC 01.040.01

---

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturi, malaka, amaliyot, attestatsiya, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni aniqlash, irrigatsiya, melioratsiya, suv xo'jaligi, resurstejamkor sug'orish, meliorativ tizimlar, atrof-muhitni muhofazasi, mehnatni tashkil etish, personalni boshqarish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, inson taraqqiyoti.

Ishlab chiquvehilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda  
kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti

Rektor B.Mirzayev  
2024-yil 12 06  
M.O.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor M.Boltabayev  
2024-yil 12 06  
M.O.



MCHJ "UZGIP"  
Texnik direktor U.Abdulayev

2024-yil 12 06

M.O.

Toshkent Davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S.Islamov

2024-yil 12 06



O'zbekiston Respublikasi  
Suv xo'jaligi vazirligi  
Strategik rejalashtirish va metodologiya  
bo'limi

Boshliq X.Lapasov  
2024-yil 12 06

M.O.

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-  
tadqiqot instituti

Direktor A.Urazkeldiyev  
2024-yil 12 06

M.O.

"O'zsuvqurilish"  
Boshqaruv raisi R.Umarov

2024-yil 12 06

M.O.